



# Boshlang'ich Sinflarda "Tarbiya" Fanini O'qitishda Innovatsion Metodlardan Foydalanish Metodikasi

Sidikova Zulfiya Murodjon qizi

To'lqinova Nurxonoy Ahadjon qizi-FarDu talabasi

Ibrohimova Mehrinoz Bahodir qizi-FarDu talabasi

**Annotatsiya.** Keyingi yillarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim va tarbiyasini yaxshilash yo'llarini izlash yo'nalishida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faolligi oshdi. Bu ta'lim jarayonining yo'nalishini o'zgartirishda, uning umumiy ta'limning davlat standartlari kontseptsiyasiga mos keladigan har bir bolaning shaxsini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilishida namoyon bo'lmoqda. Shaxsiy rivojlanish muayyan shartlar va harakatlarni talab qilmoqda. Yangi ta'lim standartlari ochiqlik, xilma-xillik, moslashuvchanlik bilan ajralib turadigan va o'qituvchi o'z ta'lim yo'lini va maktabga moslashish yo'lini tanlaydigan sharoitlarni taklif qilmoqda. Shu bois, mazkur maqolaning asl maqsadi boshlang'ich sinflarga "Tarbiya" fanini o'qitishda innovatsion metodlarni tadbiq qilishdan iboratdir. Tadqiqot natijasiga ko'ra, boshlang'ich sinflarda "Tarbiya" fanini o'qitishda maqola ta'sis etilgan innovatsion metodlardan foydalanish samarali natija berdi.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya fani, o'qitish texnologiyasi, metodika, metod, innovatsion metodlar, boshlang'ich sinf, o'quvchi, o'qituvchi.

O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini joriy etish bo'yicha qaror qabul qilindi. Mazkur qarorning asosiy maqsadi umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etishdan iboratdir. Mazkur qarorni amalgaga tadbiq qilish maqsadida boshlang'ish sinf o'quvchilariga mazkur fanni o'qitish boshlandi. Bizga ma'lum, boshlang'ich muktab bu bolaning hayotidagi qimmatli, printsipial jihatdan yangi bosqich: tizimlio'qitish ta'lim muassasasida boshlanadi, uning tashqi dunyo bilan o'zaro ta'siri doirasi kengayadi, ijtimoiy mavqeい o'zgaradi va o'zini namoyon qilish zarurati ortadi.

Ma'lumki, bolalar o'z qiziqishlariga ergashish, tanlov qilish va bir-biri bilan faol muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lalar, samarali o'rganishadi. Biz bolalarda o'rganishga bo'lgan ishtiyoq va muhabbatni, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni, o'quvchilarini turli ta'lim shakllaridan foydalanishga undaydigan faol ta'lim orqali ijodiy va ijtimoiy mas'uliyatli shaxslarni tarbiyalashni xohlaymiz. Har bir o'qituvchi o'zini kundalik tajribasining islohotchisi deb bilsa, eng barqaror ta'lim islohoti muvaffaqiyatli bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda innovatsion metodlardan foydalanish ta'limning zamонави shakli hisoblanadi. Shu bois, innovatsion metodlardan "Tarbiya" fanini o'qitishda foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Quyida keltirilgan innovatsion metodlar boshlang'ish sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini o'qitishda keng qo'llaniladi va o'z samarasini beradi: [2, 39-45]. "Yozma bahslar" metodi. Bu metod o'quvchilarga o'quv xonasidagi tengdoshlari bilan birgalikda shu onda jamoatchilik fikrini to'lqinlantirayotgan mavzularda muloqotlarni rejalashtirish imkonini beradi.

Uslug o'quvchilarining berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish sharoitini yaratish, munozara madaniyatini o'rgatish va o'z fikrini asoslash qobiliyatini rivojlatirishga xizmat qiladi. Bu metoddan foydalanishda o'qituvchi o'quvchilarini baholash uchun asos xizmatini o'tovchi ajoyib materialga ega bo'ladi. Yozma bahslar uslubiyoti



bunday muloqtlarni o'quv xonasidagi barcha o'quvchilar ishtirokida yozma shaklda o'tkazish imkonini beradi. «6x6x6» metodi. Ushbu metod yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. «6x6x6» metodi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaqa tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhlar bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar. «6x6x6» metodining afzallik jihatlari quyidagilardir: guruhlarning har bira'zosini faol bo'lishga undaydi; ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi; guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil kiladi; ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdsk, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi. Eng muhimi, mashg'ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovechi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi. Ushbu metodni 5, 6, 7 va hatto 8 nafar o'quvchidan iborat bo'lgan bir necha guruhlarda ham qo'llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o'rtasida «6x6x6» metodi qo'llanilganda vaqtini ko'paytirishga to'g'ri keladi. Chunki bunday mashg'ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun ham birmuncha ko'p vaqt talab etiladi. So'z yuritilayotgan metod qo'llanilayotgan mashg'ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzu (muammo)ni muhokama qilish imkoniyati mayjud.

«6x6x6» metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo'lishni talab etadi. Guruhlarning to'g'ri shakllantirilmasligi topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Yelpig'ich metodi. Bu metod murakkab, ko'p tarmoqli, ko'pincha muammoli xarakterga ega bo'lgan mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, unda mavzuning barcha jihatlari (masalan, ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari, boshqa fazilatlari) to'g'risida bir yo'la sharh beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida belgilanadi va tegishlich muhokama etiladi. Bu interfaol metod o'quvchilarda tanqidiy, tahliliy, aniq, mantiqiy fikrlashning muvaffaqiyatli rivojlanishiga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilish qobiliyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Yelpig'ich metodi umumiy mavzuning ayrim jihatlarini alohida muhokama qiluvchi kichik guruhlarning hamda har bir ishtirokchining va shu bilan birga, butun guruhning faol ishlashini tashkil qilishga yo'naltirilgan. Yelpig'ich metodini mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llash mumkin: a). boshlanishida: o'quvchilarning bilimlarini erkin faollashtirish; b). mavzuni o'rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish; c). yakunlash bosqichida: olingen bilimlarni tartibga solish. Bu metodni qo'llashda mavzu bo'yicha quyidagi asosiy tushunchalar o'rganiladi: (i) mavzuga tegishli tushunchalar, nuqtayi nazarlar, predmet, hodisalar; (ii) afzallik -biror narsa bilan qiyoslagandagi ustunpik, imtiyoz; nuqson — nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik; fazilat — ijobjiy sifatlar; xulosa — muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalarbo'yicha dalildan natijaga kelish. Yelpig'ich metodi ta'lim maqsadidan tashqari tarbiyaviy xarakterdagi quyidagi vazifalarni amalga oshirish imkonini ham beradi: jamoa, guruhlarda ishslash mahorati; muammolar, vaziyatlarni turli nuqtayi nazardan muhokama qilish mahorati; murosali qarorlarni topa olish mahorati; o'zgalar fikriga hurmat; xushmuomalalik; ishga ijobjiy yondashish; faollik; muammoga diqqatini jamlay olish mahoratini shakllantirish va mustahkamlash. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarbiya yuksak ma'naviy, jismoniy



barkamollik, yaxshining yomondan farqini anglash, yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirish qudratiga egadir. Tarbiya kishilik jamiyatining xamma bosqichlarida rivojlanib, o'sib, avloddan-avlodga vorislik vazifasini bajaradigan hodisa. Shu tufayli, mакtab darsliklari qatoriga "Tarbiya" fanining qo'shilichi bejiz emas. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga "Tarbiya" fanini o'qitishda maqolada keltirilgan: Yelpig'ich metodi, 6×6×6 metodi va yozma bahslar metodlari samarali natija berdi.

**References:**

1. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-son qarori
2. T.G'offorova .”BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR” “Tafakkur nashriyoti”-2011.
3. 3.Варегина Ф.В.Дидактические условия формирования учебных навыков умладших школьников: Автореф. дис. .канд. пед. наук. Л., 1980.
4. 4.Петровский А.В. Возрастная и педагогическая психология. –
5. 5.М.: Просвещение –1973. –288
6. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)